



FORMATION OF INTELLECTUAL CULTURE OF THE PERSON

Mokhira Anvaronna Azizova

Senior Lecturer, Department of Physical

Culture and Humanities, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: personality, intellectual culture, thinking, cognitive process, spiritual values, intellectual potential, innovative development, information culture, social environment, intellectual education.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the process of forming an individual's intellectual culture from a socio-philosophical perspective. It is substantiated that intellectual culture is inextricably linked with the level of development of human thinking, the content of cognitive activity, and the system of spiritual values. The study separately highlights the role of education, openness of the information environment, digital technologies, and creative thinking in the formation of intellectual culture. It is also emphasized that increasing the intellectual potential of the individual is connected with the innovative development of society. According to the results of the article, the harmony of the social environment, the education system, and cultural values is defined as an important factor in the development of intellectual culture.

SHAXS INTELEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISHI

Moxira Anvarovna Azizova

“Jismoniy madaniy va gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: shaxs, intellektual madaniyat, tafakkur, bilish jarayoni, ma’naviy qadriyatlar, intellektual salohiyat, innovatsion

Annatsiya: Mazkur maqolada shaxs intellektual madaniyatining shakllanish jarayoni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Intellektual madaniyat inson

rivojlanish, axborot madaniyati, ijtimoiy muhit, intellektual tarbiya.

tafakkurining rivojlanish darajasi, bilish faoliyatining mazmuni va ma'naviy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liqligi asoslanadi. Tadqiqotda intellektual madaniyatni shakllantirishda ta'lim, axborot muhitining ochiqqligi, raqamli texnologiyalar va ijodiy fikrlashning o'rni alohida yoritilgan. Shuningdek, shaxsning intellektual salohiyatini oshirish jamiyatning innovatsion taraqqiyoti bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Maqola natijalarida intellektual madaniyatni rivojlantirish uchun ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi va madaniy qadriyatlarning uyg'unligi muhim omil sifatida belgilangan.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ

Мохира Анваровна Азизова

*Старшего преподаватель кафедры “Физическая культура и гуманитарные науки”
Ташкентского университета информационных технологий
имени Мухаммада ал-Хоразмий
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: личность, интеллектуальная культура, мышление, познавательный процесс, духовные ценности, интеллектуальный потенциал, инновационное развитие, информационная культура, социальная среда, интеллектуальное воспитание.

Аннотация: В данной статье процесс формирования интеллектуальной культуры личности анализируется с социально-философской точки зрения. Обосновывается неразрывная связь интеллектуальной культуры с уровнем развития человеческого мышления, содержанием познавательной деятельности и системой духовных ценностей. В исследовании особо подчеркивается роль образования, открытости информационной среды, цифровых технологий и творческого мышления в формировании интеллектуальной культуры. Также подчеркивается, что повышение интеллектуального потенциала личности связано с инновационным развитием общества. В результате статьи гармония социальной среды, системы образования и культурных ценностей определена как важный фактор развития интеллектуальной культуры.

Kirish. Shaxs intellektual madaniyati – bu insonning bilish, tafakkur, tahlil, muloqot va ijodiy faoliyati orqali shakllanadigan, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, ularni amaliy hayotga tadbiq etish hamda ma'naviy qadriyatlar asosida baholay olish qobiliyatlarini ifodalovchi

murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. U insonning dunyoqarashi, bilimga bo'lgan munosabati, tafakkur madaniyati va axloqiy mas'uliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-intellektual tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Intellektual madaniyat, avvalo, inson tafakkurining ichki madaniyati, ya'ni aqliy faoliyatni tartibga soluvchi ma'naviy me'yorlar majmuini ifodalaydi. Bunda shaxs o'z bilimini faqat nazariy darajada emas, balki amaliy faoliyatda ham namoyon eta oladi. Bu jarayonda bilim, tafakkur, axloq va ijtimoiy tajriba o'zaro sintez holatida kechadi. Shaxs intellektual madaniyati insonning mustaqil fikrlash, muammolarni mantiqan tahlil qilish, tanqidiy yondashuv asosida xulosa chiqarish va yangilik yaratish qobiliyatlarida o'z ifodasini topadi. Intellektual madaniyat insonning ontologik va aksiologik mohiyatini anglash jarayonini ifodalaydi. U shaxsning o'z "men"ini bilish, mavjudlikni tushunish va ijtimoiy haqiqatni ongli ravishda qayta qurish qobiliyatidir. Shu boisdan, intellektual madaniyat nafaqat bilimlar majmui, balki tafakkurning axloqiy yo'nalishini, aql va vijdon uyg'unligini ham o'z ichiga oladi. U insonni o'z fikrini mustaqil ifodalashga, haqiqatni izlashga va jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga undaydi.

Raqamli davrda shaxs intellektual madaniyatining shakllanishi yangi bosqichga ko'tarildi. Axborot oqimlarining keskin ortishi, sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi inson tafakkurini faollashtirish bilan birga, tanqidiy fikrlash va axborotni ajrata bilish madaniyatini ham talab etmoqda. Shuning uchun intellektual madaniyatni rivojlantirishda raqamli savodxonlik, media madaniyat va axborot etikasi muhim komponentlarga aylanmoqda. Ta'lim jarayoni intellektual madaniyat shakllanishining asosiy omillaridan biridir. Chunki ta'lim insonni bilimga yetaklash bilan birga, uni tafakkur madaniyati, muloqot madaniyati va ijodiy fikrlash tamoyillariga o'rgatadi. Shu jihatdan, intellektual madaniyat – bu insonni bilim orqali o'zini va dunyoni anglashga yo'naltiruvchi madaniy mexanizmdir. U insonni ongli, maqsadli, mas'uliyatli fikrlashga undaydi va natijada jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Shaxs intellektual madaniyatining shakllanishi" masalasi bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushuncha zamonaviy falsafa, pedagogika va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada o'rganiladi. A. Maslou, J. Piaget, V. Davydov, E. Fromm kabi olimlar inson tafakkuri, ijodiy salohiyati va madaniy ong rivojlanishining bosqichlarini tahlil qilganlar. O'zbek tadqiqotchilari (M. Xo'jayev, O. Qosimov, N. Jo'raev) esa intellektual madaniyatni milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya va ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq holda yoritadilar. Adabiyotlarda shaxsning intellektual madaniyati bilim, tafakkur madaniyati, axloqiy qarashlar va ijodiy tafakkur sintezida shakllanadigan jarayon sifatida talqin etiladi.

Tahlil va natijalar. Shaxs intellektual madaniyatining asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: mustaqil fikrlash qobiliyati, ilmiy tafakkur madaniyati,

axborotdan samarali foydalanish, ijtimoiy mas'uliyat hissi, yangilikka ochiqlik, tolerantlik, axloqiy tamoyillarga sodiqlik va ijtimoiy muammolarga ongli yondashuv. Ushbu fazilatlar shaxsni ijtimoiy hayotda faol ishtirokchi, ongli qarorlar qabul qiluvchi va madaniy muhitni boyituvchi subyektga aylantiradi. Shaxs intellektual madaniyati – bu inson tafakkurining ma'naviy yetukligi, axborot va bilimlar bilan ongli munosabatda bo'lish, ularni ijtimoiy manfaat yo'lida qo'llash madaniyatidir. U jamiyat taraqqiyoti, milliy tiklanish va insoniyatning global rivojlanish jarayonida hal qiluvchi falsafiy-axloqiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Falsafiy tadqiqotlarda umumintellekt tushunchasi keng qo'llanilib, ko'proq universal ruhiy qobiliyat ma'nosida ishlatilib kelinadi. Binobarin, intellekt mazmunini tushunish qobiliyat tushunchasi bilan bevosita bog'langandir. “Qobiliyat individual-ruhiy jihatdan insonning o'ziga xosligini anglatadi, boshqacha aytganda, keng ma'noda “insonning individual salohiyati, imkoniyatlari”dir [1]. Bizningcha, qobiliyat insonning individual-ruhiy imkoniyatlarini ifodalaydi va uning o'ziga xosligini belgilaydi. Bu salohiyat inson tafakkuri, his-tuyg'ulari hamda irodasi uyg'unligida namoyon bo'lib, shaxsning ijodkorligi, faoliyati va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Qobiliyat muammosi faylasuflarni o'ziga jalb etib kelgan falsafiy tadqiqotlar ob'ektidir. Binobarin, shaxs qobiliyati tufayli faoliyatning, shu jumladan, boshqaruvning sub'ektiga aylanadi, ularni taraqqiy ettirib yuksak malakaviy mahoratga erishadi. Faylasuf olimlarning ta'kidlashlaricha, inson qobiliyatining shakllanishi uning iste'dodiga bevosita bog'liq bo'ladi. Tadqiqotchi Z.Ibodullayevning ta'kidlashicha, “shaxsning kamol topishida qobiliyat va iste'dodning ham ahamiyati katta. Qobiliyat muayyan faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan individual xususiyatdir. Odam qobiliyatli bo'lib tug'ilmaydi, balki yetishadi. Ilk bolalik davridan boshlab odamda nimagadir qobiliyat bo'ladi, nimagadir esa bo'lmaydi. Buni ota-ona ilg'ab olsa, keyinchalik bola yetuk shaxs bo'lib yetishishi mumkin”[2]. Fikrimizcha, qobiliyat va iste'dod shaxs kamolotining poydevoridir. Ular tug'ma emas, balki tarbiya, ta'lim va muhit ta'sirida shakllanadi. Boladagi tabiiy qobiliyati va iste'dodini erta aniqlash, uni to'g'ri yo'naltirish orqali ijtimoiy jihatdan yetuk, ijodkor shaxsni voyaga yetkazish imkoniyati paydo bo'ladi.

Iste'dod inson miyasi, asab tizimi, hissiyot va xatti-harakatining tug'ma anatomik-fiziologik xususiyati, shaxs qobiliyatlari taraqqiyoti asosini tashkil qiluvchi funksional o'ziga xosligidir. Insonlar tug'ma jihatdan turli qobiliyatga ega bo'ladi, ular qobiliyatlar rivojlanishining asosini tashkil etadi. Mehnatni avtomatlashtirish davrida informatika insonni turg'un, og'irmehnat sarfini talab etuvchi, jismoniy va aqliy mehnatdan xalos etadi, uning tafakkurini kuchaytiradi. Informatika mehnatning turlari samaradorligini oshirish imkonini beradi, insonni yangi hodisalar doirasiga, yangi bilim sohalariga olib kiradi. Inson mehnati tobora intellektual mazmun kasb etib boradi.

Mehnatning intellektuallashuvi axborotlashgan jamiyatdagi mehnatning o'ziga xos jihatlaridan biridir [3].

Mehnatning intellektuallashuvi uning «ilmiylashishi»da o'z aksini topadi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan bilimlar tarkibida ilmiy bilimlar salmog'i oshib boradi. Mehnat jarayonida ilmiy bilimlardan foydalanilishi, mehnatning intellektuallashuvi, ishchining bevosita texnologik jarayondan erkinligi darajasining ortishi shaxs o'z ijodiy qobiliyatini namoyon etishiga imkoniyat yaratadi va uning mehnatiga ijodiy mazmun baxsh etadi, natijada, mehnat sharoiti mukammallashadi. Ishlab chiqarishni axborotlashtirish va avtomatlashtirishning rivojlanishiga qarab, ishchining ijodi ham takomillashadi. Lekin, «kelgusi yigirma yilda kundalik ishlarning 10 foizdan 40 foizigacha avtomatlashtirilishi mumkin. Bank va sug'urta sohasidagi kasblarning uchdan bir qismi – besh-o'n yil oralig'ida mutlaqo kerak bo'lmay qoladi. Robotlar va algoritmlar ko'p xodimlarning takrorlanadigan ishlarini tezroq, ishonchli va arzonroq narxda, kunduzi yoki kechasi – har qanday vaqtda amalga oshiradi»[4].

Tafakkur inson mehnatini aqliy va jismoniy turlarga ajratar ekan, o'zining mo'ljal, maqsad va amaliy ko'rinishlari bilan mustaqil faoliyat tusini oladi. Shaxs intellektual mehnat jarayoni mohiyatan mustaqil va yashirin tarzda kechadi. Uning tashqi vositalar yordami bilan tashkil topishi murakkab bo'lganligi uchun inson intellektual mehnat jarayonida tafakkurdan faoliyatning ichki vositasi sifatida keng foydalanadi. Intellektual mehnat - bu insonning shaxsiy, ixtisoslashgan va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan aqliy faoliyati va sub'ekt yoki sub'ektlar guruhining maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayoni samaradorligini ta'minlovchi faoliyatdir.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida jismoniy mehnat faoliyati singari insonning intellektual mehnati evaziga ham haq to'lanadi va bu mehnat kapitalga aylantiriladi. Intellektual kapital aqliy mehnatda aniq qiymat mavjudligini anglatadi. Intellektual kapital ikki xil ma'noda, birinchidan, yetuk mutaxassisning aql-idroki, ikkinchidan, inson(inson kapitali) ning intellektual mulki sifatida qayd etilgan shaklda yuzaga keladi [5].

Intellektual kapitalning kishilar ongidagi qismi moddiy, tovar shakliga ega bo'lmaydi. Intellektual kapitalning moddiylashgan qismidan savdo-sotiqda foydalanish imkoniyati mavjuddir. Intellektual kapitalning moddiy tus olmagan, ya'ni predmetlashmagan qismi faqat intellekt sohibiga tegishli bo'ladi. Bu sharoitda intellekt sohiblari bo'lgan kadrlar intellektual mulkning tarkibiy qismi hisoblanadi va o'z qiymatiga ega bo'ladi. Intellektning moddiylashuvi, birinchidan, intellektual faoliyat mahsulining qo'shimcha qiymatga aylanish jarayonida undan ishlab chiqarishni rivojlantirishda; ikkinchidan, intellektual mahsulotlar (patent, mualliflik guvohnoms, kashfiyot va boshqalar)dan foydalanishda, shuningdek, alohida shaxs yoki jamoaning intellektual faoliyatini uyushtirishdan tushadigan, yig'iladigan moliyaviy mablag'lar asosidagi kapitalning tashkil topish jarayonida yuz beradi [6].

Fenomenologiya nazariyasi asoschisi professor E.Gusserl ongni sof imkoniyatlar majmui sifatida qaragan edi [7]. Olimning bu ta’rifi «sun’iy intellekt»ning virtual reallik deb nazariy asoslash dasturini yaratishga zamin hozirladi. «Sof imkoniyatlar» tarzidagi ongni inson ongi va «sun’iy intellekt» tipidagi hodisalarga nisbiylashtirib, bu hodisalarni ongning konkret gavdalanish shakllari aks etgan ideal deb tushuna boshladilar. Ayrim inson ongi yoki «sun’iy intellekt» modelini «sof ong» imkoniyatlarining amalga oshgan xususiyat holi deb hisoblash mumkin. Inson jismoniy imkoniyatlarining kuchayishi hozirgi davrda intellektning texnologiyaviy ozodligi bilan to’ldirildi, inson bunga kompyuter erasida erishdi.

Sun’iy intellektni yaratish, ya’ni tafakkur jarayonini modellashtirish muammosini Penrouz juda keng doiradagi hodisalarni va ilmiy bilimlarni yoritish: tafakkurni algoritmlash, modellovchi mashinalar, murakkablik nazariyasi, materiyani teleportatsiyasi masalasi, kvantlar fizikasining paradokslari, entropiya hodisalari, olamning vujudga kelishi (shakllanishi) masalasi, qora tuynuklar, inson miyasining tuzilishi va boshqa masalalar shular jumlasidandir. Shuning uchun bu tadqiqotlar gumanitar va tabiiy fanlar mutaxassislarida ham qiziqish uyg’otdi. Mazkur masala bo’yicha Penrouz “men ong hodisasini hozirgi davr nazariy fizikasi doirasida tavsiflab bo’lmaydi deb hisoblayman” [8] degan xulosani chiqarib, sun’iy intellektni yaratish kerak emasligi haqidagi fikrni oldinga suradi. Sun’iy intellektni yaratib bo’lmazligi, uning tushuntirishicha, “intellektuallik”ni modellashtirish uchun muhim bo’lgan “tushunish” jarayoni bo’lishini taqozo etadi. Vaholanki, tushunish jarayonini modellashtirish, ya’ni hisoblash mumkin emas. Chunki, tushunish ong, onglash kabi fan bilmaydigan mistik jarayon bilan bog’liqdir.

Aqliy bilish jarayonida uning barcha turlariga xos tizimiy belgilar, me’yoriy funksiyalaridan foydalanish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Darhaqiqat, insonning har qanday malakaviy-ixtisoslashgan, shuningdek, nafaqat botiniy (aqliy, fikriy), shu bilan birga, tashqi (xulqiy) xatti-harakatlari ham muayyan tarzda shakllangan me’yoriy funksiyalar tizimiga asoslanadi. Intellektual voqelik insonning botiniy faoliyatidir. Bunda intellekt inson professional faoliyati tavsifi sifatida namoyon bo’ladi va sub’ektning intellektual potensialini ro’yobga chiqaradi. Intellektual potensial funksional jihatdan inson qobiliyati imkoniyatlarini oldindan bilish, uning fikrlash usullari va vositalari, intellektual madaniyat asosi sifatida shakllangan munosabat va sotsiomadaniy qadriyatlarning rang-barang turlarini o’z ichiga oladi.

Inson faoliyati ayni paytda ikki doira, ya’ni botiniy, fikriy hamda tashqi, xulqiy (faoliyatli) holatda ko’zga tashlanadi, ya’ni, inson o’ylaydi, shu bilan birga, o’z faoliyatini tashqi, ya’ni xulqiy xatti-harakatlar ko’rinishida namoyon qiladi. Inson intellektual potentsiali birinchidan, insonning nimaga qodirligi, ya’ni uning amaliy va intellektual funksiyalari majmuini, ikkinchidan, uning bu funksiyalarni qanday va qay tarzda bajarishini ifodalaydi. Funksiyalarni amalga oshirish usuli, bu, avvalambor, insonning fikrlash va xulq-atvori usulidir. Bu yo’l bilan u yoki bu ta’sir fikrdan

o'tkaziladi, nimaga qiyoslanadi, me'yorning qanday talablariga javob beradi, qanday amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Bu yerda intellektual mulkning madaniyat hodisasi ekanligini ta'kidlash zarur.

Madaniyatning rang-barang ta'riflaridan farqli o'laroq intellektual mulkni madaniy hodisa tariqasida tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar yuzaga keldi [9]. Faylasuf tadqiqotchilar intellektual mulk narsalarga nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etishini e'tirof qiladilar, buning sababini, avvalo, uning ma'naviy ishlab chiqarish sohasida yuksak o'rin tutishiga bog'laydilar. Shunday bo'lsa-da, intellektual mulkni ma'naviy hodisa tariqasida tushunish, anglash o'zining yetarli darajadagi asosini topmagan.

Hozirgacha intellektual madaniyat sohasida yuzaga kelgan jamiki ilmiy qarashlarni shartli ravishda uch xil tarzda, ya'ni ijtimoiy, gumanistik va informatsion-kommunikativ yo'nalishlarga ajratib o'rganilgan. Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy yo'nalish tarafdori bo'lgan faylasuf tadqiqotchilar madaniyatga "inson uchun tabiiy bo'lmagan ma'naviy me'yorlar, qadriyatlar, ijod tarzida yondashadi"[10]. Gumanistik yo'nalish esa madaniyatni inson faoliyati, uning natijasi yaratadigan ma'naviy qadriyatlar, insonning faol, mohiyatli borlig'i deb ta'kidlashadi. Informatsion-kommunikativ yondashuvda esa madaniyatning avloddan-avlodga bilim va informatsiyalar yetkazib berish xususiyatlariga e'tibor qaratiladi, buning boisi shuki, madaniyat informatsiyani doimiy ravishda eng foydali va qulay uslublarni ishlab chiqqan holda saqlaydi, yangi informatsiyalarni qabul qiladi, ularni qayta ma'lumotlarga aylantiradi, ularni bir tizimdan boshqasiga o'tkazadi.

Intellektual mulk murakkab madaniy ob'ekt bo'lib, unda informatsion, ash'yoviy va belgili timsollar uyg'unlashib ketadi. Bunda axborotlar majmuasi, to'plami madaniy ob'ekt sifatidagi intellektual mulkda ifoda topadi va har bir inson uni yaratishi mumkin. Madaniy informatsiya manbai bo'lgan intellektual mulk insoniyat to'plagan madaniy tajribani namoyish qiladi, holbuki, biror-bir yangilikni unga suyanmay turib yaratish mumkin emas; u insonga bavoisita va bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki intellektual mulk jamiyatdagi mavjud holatni takomillashtirish maqsadida yaratiladi; konkret inson va umuman jamiyat madaniy makonini kengaytiradi, negaki, intellektual mulkning aksar ob'ektlari asta-sekinlik bilan insoniyat madaniyati asarlariga aylana boradi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida intellektual mulk axloqiylik, ma'naviylik va ijodiylikni o'zida gavdalantirishini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Inson umuman jamiyatdagi real norma va qadriyatlarga ijodiy munosabat bildirmaganda intellektual mulk asarlari yaratilmagan bo'lardi. Intellektual mulk ob'ektlari ma'naviy asoslar bilan boyitilgan bo'ladi, chunki uning ayniqsa hozirgi zamonda vujudga kelishi tasodifiy emas va ko'proq fan, san'at va texnika, innovatsion texnologiyalarning ijobiy yo'nalishiga qaratilgandir. Bu esa o'z navbatida

intellektual mulkning axloqiy ruhini tashkil qiladi, chunki fan, san'at va texnika doimiy rivojlanmasa, ijtimoiy hayotning bir me'yorda kechishiga putur yetadi.

Jamiyatdagi har qanday hodisani ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida qarab chiqish mumkin bo'lganidek, ayni bir ob'ektga turli predmetlar mos kelishi mumkin. Buning ma'nosi shuki, bilim predmetining xarakteri qanday ob'ektni aks ettirish emas, shu bilan birga, yana bu predmetning muayyan vazifani ado etish sababiga ham bog'liq bo'ladi. Boshqa holatda aksar mualliflar ma'naviy va intellektual madaniyatga murakkab va ayni paytda bir-biridan tafovut qiluvchi hodisa tariqasida ta'rif beradi[11]. Shaxsning individual ma'naviy madaniyati ko'p jihatdan jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Ma'naviy madaniyat doimo intellektual madaniyatning ta'sirida rivoj topadi. Globallashuv sharoitida bu ta'sir jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bu jarayonda uyg'unlikka intilish zaruriyat sanalsada, unga erishish qiyin. Shuning uchun ma'naviy madaniyat bilan intellektual madaniyatni mexanik ravishda aralashtirib yuborish va ularning o'ziga xos jihatlarini inkor etish jiddiy murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bunday yondashuv bu ikki hodisaning mohiyatini belgilashda ham ilmiy metodologik ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik faylasuf Robert Mertonning tadqiqotlarida fanni shunchaki to'g'ri tasavvur emas, balki ayni ishonchli, ya'ni ob'ektiv bilimlar olishga yo'naltiradi, nafaqat texnikaviy, balki axloqiy me'yorlarni ham o'z ichiga oladi. Binobarin, ular ilmiy bilishda asosiy tamoyil hisoblangan haqiqatning ob'ektivligida qadriyatlar bilan uyg'unlashadi, binobarin, fanda, jamiyatda ularga erishishning maqsad va vositalari ob'ektivlikka asoslanadi [12].

Globallashuv sharoitida fan falsafasi, metodologiyasi fanni qandaydir ob'ektiv mazmundan mahrum hodisa tariqasida tavsiflashga urg'u berayotganligini kuzatish mumkin. Fan ob'ektiv bilimlar tizimi bo'lib qoladimi, degan metodologik yondashuvga ko'ra, fan sohasidan ob'ektiv mazmunni "haydab chiqarish" aslida uning barham topishi demakdir. Professor V.A.Lektorskiyning ta'kidlashicha, bunday falsafiy konsepsiyaning asl ma'nosi, ilmiy faoliyatga utilitar-pragmatik yondashuv fandagi "ob'ektivlik"ka qarshi "huruj" tarzida namoyon bo'ladi: "Ilmiy faoliyat hozirgi zamon nuqtai nazaridan – bu haqiqatni beg'araz qo'lga kiritish bo'lmay, ilmiy hamjamiyatlar o'rtasida ustunlikka erishish uchun kurash, raqibga, o'zga tadqiqotchilarga ta'sir ko'rsatishda rang-barang vositalardan foydalanish hamdir, shu bilan birga, muhokamalar olib borish va o'zaro kelishish hamdir. Shu nuqtai nazardan faylasuf olimlar tilida "haqiqat" va "reallik" so'zlari ularning xulq-atvori haqiqiy maqsadini xaspo'stlovchi sof ritorika bo'lib qolmoqda" [13].

Xulosa. Bilimlarning fanlar asosiy qadriyatlari sifatidagi ob'ektivligini inkor etishni asoslashga urinish postpozitivizm falsafasi taraqqiyoti ilmiy metodlarni nafaqat ilmiy faoliyatning

ijtimoiy jihatlarini, shu bilan birga, ilmiy bilimlarga tatbiq etishga qaratilgan ayrim oqimlar faoliyati bilan ham bogʻlangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Фалсафа. Қомусий луғат.— Тошкент, Шарқ, 2004. — Б.478.
2. Ибодуллаев З. Асаб ва руҳият. — Тошкент.: “ZAMIN NASHR”, 2018. — Б.116.
3. Шермухамедова Н.А. Гносеология — билиш назарияси. — Тошкент: Ношир, 2011. — Б.327.
4. Макрон Э. Революция. — Тошкент: Ўзбекистон, 2019. — Б.45.
5. Келле В.Ж. Интеллектуальное и духовное начала в культуре. — Москва: ИФ РАН, 2011. — С.218.
6. Сергеев А. Интеллектуальный капитал менеджмента. Теория и тенденции в России. — Saarbrücken: LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH & Co. KG, 2012. — С.316.
7. Гуссерль Э. Логические исследования. Том 2. Часть 1. Исследования по феноменологии и теории познания. -Москва: Академический Проект, 2011. — С.576.
8. Хокинг С., Пенроуз Р. Природа пространства и времени. -СПб.: Амфора , 2009. — С.171.
9. Бобоматов У. Келажак ва интеллектуал мулк //Фалсафа ва ҳуқуқ, 2001, 2-сон;
10. Турсунова С. Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтиришда телевиденининг ўрни ва роли //Фалсафа ва ҳуқуқ, 2008, 4-сон;
11. Ахмедова Э., Габидулин Р. Культурология.Мировая культура—Тошкент.: “Академия художеств Узбекистана”, 2001. — С. 23.
12. Большой энциклопедический словарь: философия, социология, религия, эзотеризм, политэкономия / Главн. науч.ред. и сост. С.Ю.Солодовников.- Мн: МФЦП, 2002. — С.495.
13. Эпистемология вчера и сегодня. Отв. ред. В.А.Лекторский. — Москва.: “ИФ РАН”, 2011. — С.188.